



TOG'AY MURODNING "OT KISHNAGAN OQSHOM" QISSASIDA SO'Z QO'LLASH USLUBI

Ikrom Xolmuratov

Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Nukus filiali dotsenti.

Shoxrux Xolmuratov

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqolada sevimli yozuvchimiz Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida hozirgi o'zbek adabiy tilining nihoyatda boy ekanligi, shevalardagi unutilib borayotgan beba ho durdona so'zlari, milliy qadriyatlarimiz, yilqichiligidan boyligi sanalgan ot zotlari, ko'pkari o'yinlari, ayniqsa, yozuvchi qo'llagan betakror so'z gavharlari haqida ma'lumot berishga harakat qilindi.

Kalid so'zlar: shevaga xos so'zlar, toponimik atamalar, yilqichilik, metrologik, laqablar, Ziyodulla kal, chavandoz, Tarlon, antroponim, maqollar, qoralik.

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida "O'zbek tilining izohli lug'ati" ga kirmagan bir qancha so'zlari borki, bu shevamiz boyligi. Yozuvchining asl maqsadi tilimizda unutilib borayotgan so'zlarni asrash, ularga sayqal berish, tilimizning boyligini xalqimizga namoyon qilish, aniqrog'i uqtirish. Asar 1979 yilda nashr qilingan bo'lsa ham, oradan salkam 40 yildan oshsada ko'pchilik so'zlari (shevaga xos) hali ham xalqimiz tilida qo'llanilib kelmoqda. Afsuski, ko'p so'zlarimiz iste'moldan qolganligi alamli.

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissaga O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday degan edilar.-"Dom"da yashab umrini o'tkazgan shaharlarni o'yladim. Inson bolasining uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilgan bu jonivorni faqat sirkda, kinoda ko'rgan shaharlik ukalarimizga adibning bu so'zlari qanchalik ta'sir qilishini bilaman. Shahar bolalarining tabiatdan, jonivorlardan qanchalik uzoqlashib qolganliklariga achinib ketaman.

Qissadagi bosh qahramon Ziyodulla kal chavandoz, elning koriga belbog'lab qo'y-qo'zisini boquvchi cho'pon, xalq og'zaki ijodiyotidan xabardor o'lanchi, baxshi, do'mbirachi, jaydari inson. Tarlon tulpori bilan milliy ko'pkari o'yinlari ishqibozi. Uning niyati otlarni ko'paytirish, yilqichilik tarmog'ini rivojlantirish, ot zotlarini saqlab qolishdan iborat. Ko'pkari o'yinlarida Ziyodolla chavandoz o'ta halol inson.

Yilqichilik — chorvachilik tarmog'i. Otlarni urchitish, ko'paytirish, zotini takomillashtirish, naslchilik ishlari bilan shug'ullanadi. Yilqichilik ishchi hayvon tariqasida arzon, samarali energiya manbai. Yilqichilik xilma-xil qishloq xo'jaligi ishlarida, sanoat korxonalarida, geoglarning razvedkachilik-qidiruv ishlarida, turli xil ilmiy ekspeditsiya tarkibida, chegara qo'shinlari va qo'riqchilik xizmatida noyob otulov vazifasini o'taydi.



Darhaqiqat, Yilqichilik Osiyo va Yevropada miloddan avvalgi 4-ming yillikda paydo bo'lgan. Ko'hna Yilqichilik markazlaridan biri, shubhasiz, O'rta Osiyo kengliklari hisoblanadi. Otlar milotdan avvalgi 2-ming yillikda O'rta Osiyodan Kichik Osiyoga, undan Afrikaga tarqalgan. Amerikaga otlar yevropaliklar tomonidan 16-asrda, Avstraliyaga 17-asrda keltirilgan. Otlar qo'lga o'rgatilganidan va xonakilashtirilganidan keyin insonning ko'pgina ishlarni bajarishda doimiy yordamchisiga aylandi, armiyada alohida otliq qo'shinlar tuzildi. Ayrim xalqlarda Yilqichilik oziq-ovqat mahsulotlari — go'sht va sut olinadigan xo'jalik tarmog'i bo'lib hisoblanadi.

1."Ot kishnagan oqshom" qissasidagi ot haqidagi maqollar:

- a) Asov otni taqa to'xtatadi;
- b) Oti borning- qanoti bor;
- d) Ot bitdi-qanot bitdi;
- e) Ot odamga el bo'ladi;
- f) Otga minsang- boshingni o'yla, yerga tushsang- otingni o'yla;
- g) Ot -yigitning yo'ldoshi;
- h) Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi;
- i) Yolg'z otning changa chiqmaydi, change chiqsa-da dong'i chiqmmaydi;
- j) Eshak yiqitsa, tuyog'ini to'shaydi, ot yiqitsa, yолиг'in to'shaydi;
- k) Yaxshi otdan yiqilsa, yomon ta'nacha qoladi.

2. Kal haqida (laqablar) maqollar:

- a) Kalga eshak ham bo'ladi;
- b) Kalning nimasi bor, temir tarog'i bor;
- d) Kaldan taroq so'rama;
- e) Bir kalning hiylasi- qirq kishini charchatadi;
- f) Indamagin kalga- o'zi kelar holga;
- g) Kal o'zini ovutar-qo'ltig'ini sovutar;

3.Qissada yozuvchi qo'llagan maqollar:

- a) Bir o'q bilan ikki quyonni urdi(urar);
- b) Barmog'imning qaysi birini tishlasam-da og'riydi;
- d) Bir yaxshiga bir yomon har yerda bor;
- e) Bo'ydoqning aqli ikki ko'zida bo'ladi;
- f) Bor bo'lsa, ko'rolmaydi, yo'q bo'lsa berolmaydi;
- g) El og'ziga elak tutib bo'lmaydi;
- h) Erkak odamning yig'lagani- o'lgani;
- i) Elga ermak, xalqqa shaloq emish;
- j) Eshak egasini tanimaydi, pishak bekasini tanimaydi;
- k) Elning qulog'i ellikta;
- l) Haq saqlasa balo yo'q, Haq qarg'asa davo yo'q;
- m) Kuygan- o'lanchi bo'ladi, suygan -laparchi bo'ladi;
- n) Kuyovni payg'ambarlar-da siylagan;
- o) Mol egasiga o'xshaydi;



- p) Mol egasiga o'xshamasa, harom o'ladi;
- q) Orachiga- olti tayoq;
- r) Og'rimagan boshga- olti tayoq;
- s) Og'zing qora qon bo'lsa-da, g'animing oldida tupurma;
- t) Qazisan, qartasan, asli naslingga tortasan;
- u) To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi;
- v) O'zbek eli o'r keladi, o'zi o'jar, zo'r keladi;
- x) O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir;
- y) O'zingizni biling, o'zgalarni qo'ying;
- z) Yomon gap, raketadan oldin yuradi, yaxshi gap, toshbaqadan keyin yuradi;
- o) Yigitning boshi ikki bo'lmagunicha, moli ikki bo'lmaydi;
- g') Yosh bolaga ish buyur-u, izidan o'zing yugur;
- sh) Yomondan qochda qutul, yo, ton-da qutul;
- ch) O'zing yaxshi- olam yaxshi, o'zing yomon- olam yomon;
- ng) Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi.

4. Asarda ot ismlari bilan bog'liq terminlar:

Qulun- bir yashar ot bolasi, **toy-** 3 yoshdag'i ot, **g'unon-** 4 yashar, **do'non-** 5 yashar, **baytol, ayg'ir, Tarlon**- otlarning sarasi, **Burnoch-** *ko'k, qora, to'riq Burnoch, jayron Burnoch* ot peshonasida qashqasi, burni ustida olasi bo'ladi. Butlarida ola bo'ladi. **Saman-** ot sariq, yollari, dumlari qora bo'ladi. Yol-quyrug'ida oqlari-da bo'ladi. **To'riq-** ot malla bo'ladi. **Oqtuyoq-** ot ismi, **biya-** ot turi, **cho'bir** -ot turi, **Chil** -otning bir joyi ko'k, bir yeri oq, yana bir yeri qora bo'ladi. *Qorabayir, saman, jayron-* ot ismlari, **Olako'z** baytolini- ot ismi.

5. Joy nomi bilan bog'liq terminlar (toponimik atamalar):

*Oboqli-*dasht nomi, *Surxon*-viloyat, *Irg'ali*-ovul, *Obshir*- qishloq, *Toshloq*- joy nomi, *Boysun*- qishloq, *Sho'rchi*- tuman, *Vaxshivor*- qishloq, *Chimzor*- joy nomi, *Darband*- ovul, *Bobotog'*- tog' (oronim), *Denov*- tuman (oykonim), *Sho'rchi*- ovul, *Termiz*- shahar, *Toshkent*- shahar, *Dushanba*- shahar, *Moskva*- shahar, *Vaxshivorsoy*- ariq nomi, *Qarluq*- qishloq, *Qizilsuv*- daryo nomi, *Evropa*- qit'a nomi, *Salvador*- shahar, *Nikaragua*- shahar, *AQSH Amerika* *qo'shma shtatlar* - respublika, *Polsha*- shahar, *Eron*- respublika, *Qo'ng'iroq* - qishloq (urug' nomi), *Qo'shtegirmon*- ovul, *Keragatog'* Hisor togi davomi, *Qorbosdi*- dasht nomi, *Xazarbog'* - qishloq nomi, *Qoraxon*- ovul, *Kanada*- shahar, *Navoiy*-sovxozi (jamoa xo'jaligi), *Hayrondara*- joy nomi.

6. Qissada metrologik so'zlar:

Metrologiya-grekcha metron- o'lchov, logos-ta'limot, bilim. O'zbek tilida uning va dialektlarida qadim zamonlardan beri nasldan-nasnga o'tib to'plangan xilma-xil xalq metrologiyasiga oid so'z va termmiinlar mavjud.

Insonlarning kundalik hayotida uchraydigan ba'zi narsalar va ularning nomi juda qadim zamonlardayoq o'lchov-miqdor birliklari vazifasini bajargan. Masalan: qisim, siqim-bir qisim tuz, bir siqim tuproq, quchoq- bir quchoq o'tin kabi. Shuningdek,



o'zbek adabiy tilida og'irlik o'lchovlarini ifodalovchi *botmon*, *misqol*, *qadaq*, *paysa*, *dahsar*, *nimcha*, *qarich* singari metrologik terminlar mavjud.

Yozuvchi Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" qissasida bir qancha o'lchov birliklaridan unumli foydalangan. Ular quyidagilar: Bir osh pishirguncha vaqt, besh-o'n odim, bir cho'bir ot enlik, ellik- oltmish qadam, uloq to'dadan sag'al chiqsa bo'ldi, bir yirtim mato, kattaroq o'choqday chuqur- qoralik sanalgan ko'pkarilar uchun.

" – Mana shu chuqur qoralik, kimki uloqni shu chuqurga olib kelib tashlasa bir qo'y, ellik so'm pul, bir to'n oladi.

Qoralik- ko'pkarining eng mushkuli, eng qiyinidir, ko'pkari yuzidir. Qoralikni halollash chavandozga-da, otga-da faxr. Uloqni qoralikka bir marta olib borib tashlash, to'dadan uch marta uloq ayirishdan ziyod (51-bet). Shuningdek, asarda o'n kilo arpa, bir qop samon, to'rt osh pishirimdan, olti un xalta, qozon ikki qaynaydi singari o'lchov birliklarini qo'llagan.

7.Onomastika (Antroponim) terminlar:

Antroponim- (yunoncha antro-odam, onoma- nom) – kishi ismmi, laqabi, familiyasi bilan bog'liq bo'lgan nomlar. Asarda bir qancha odam ismlari, laqablari, kasb-kori nomlari keltirilgan-ki, bu detallar qissaga mazmundorlik kashf etgan: Momosuluv, Nazoz *chavandoz*, Ziyodulla *kal-laqab*, Alpomish- doston qahramoni, Asad *cho'pon*, Betxoven, Chaykovckiy, Ashrafiy- bastakorlar, Turdi podachi- laqab, Safar *chavandoz*, Fayzulla *chavandoz*, Hamdam *chavandoz*, Samad *chavandoz*, Qobil *palvon*, Jumanbulbul, Fozil Yo'ldosh – baxshi, oxunlar, Botir *mirob*, Tog'ay, Bo'ri, Qulmat *polvon*, Shokirqul, Karim, Dono momo, Mo'min, Nazir *juvozkash*-kasb, Omon *surnaychi*-kasb, Qoraqul, Odina *chavandoz*, Jo'ra bobo, Hojiqulboy, Xudoyqul *doktor*, Hasan bobo, Xidir *mirob*- kasb, Qurbanazar *rais*-kasb, Zaifa, Rahmonboy, Oxun *chavandoz*, Yo'ldosh *chavandoz*, Xumor xola, Qatron *kal*- laqab, Chekkagir chavandoz- begona, Chakana *cho'pon*- el qo'yini boqadigan odam.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida o'zbek adabiy tilining boyligi sanalgan leksikasidagi: shevaga xos so'zlar, frazeologik birliklar, fonetik va grammatik xususiyatlarini namoyon qilishga harakat qilgan. Umumxalq tilining yoqori shakli adabiy til bo'lib, u tilning fonetik, leksik va grammatik qurilishida mavjud qonuniyatlarni ma'lum me'yorga solib turadi. Bu me'yor shu tilda so'zlovchi barcha kishilar uchun umumiyligi va zaruriyligini yozuvchi xalqimizga eslatib qo'ydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbek shevalari leksikasi. T, Fan, 1966.-326-b.
- 2.Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Toshkent, 2017.-174-b.
- 3.S.Qoraev. Toponimika.T, O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti 2006.-318-b.
- 4.E.Begmatov. O'zbek ismlari ma'nosi. Toshkent, 1998.-604-b.



5.Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. Toshkent, 1990.-524-b.

6.Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent, 1978.-405-b.

7.O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli) - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005-2008.